XALQ DEPUTATLARI GURLAN TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 8 - may VI-79-63-12-171-K/23 Gurlan tuman hokimligi

Gurlan tuman mahalliy budjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hamda 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

Gurlan tumani hokimligining Iqtisodiyot va moliya bo’limi boshlig’i Ollamov Muzaffar Raximovichning Gurlan tumani mahalliy budjetining **2023-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hamda** 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidan tuman hokimligi tomonidan taqdim qilingan taklifi bo‘yicha mablag‘lar ajratish hisobotini atroflicha muhokama qilib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Gurlan tumani hokimligining Iqtisodiyot va moliya bo’limi boshlig’i Ollamov Muzaffar Raximovichning Gurlan tumani mahalliy budjetining **2023-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hamda** 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risidagi tuman hokimligi tomonidan taqdim qilingan taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Tuman hokimligi tomonidan taklif qilingan tadbirlarga tuman mahalliy budjetining **2023-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan 1-ilovaga muvofiq** mablag‘ ajratilsin.

3. Tuman hokimligi tomonidan taklif qilingan tadbirlarga tuman mahalliy budjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidan **2-ilovaga muvofiq** mablag‘ ajratilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Davlatov hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiyi slohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Xaniyazov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **U.Jumaniyazov**

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2023 yil 8 maydagi
VI-79-63-12-171-K/23-son qaroriga
1-ilova

Gurlan tumani mahalliy byudjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratilgan mablag‘lar to‘g‘risida

MA‘LUMOT

№	Tashkilot nomi	Maqsadi	Summa
1	Gurlan tumani hokimligi	Tuman hokimligining kommunal to‘lov xarajatlari uchun	120 000 000
2	Gurlan tumani hokimligi	Tumanlararo fuqarolik sudining hal qiluv qaroriga asosan undiriladigan mablag‘lar uchun	125 000 000
3	Gurlan tumani hokimligi	Tumanlararo fuqarolik sudining hal qiluv qaroriga asosan undiriladigan davlat boji uchun	46 000 000
	Jami	**x**	**291 000 000**

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2023 yil 8 maydagi
VI-79-63-12-171-K/23-son qaroriga
2-ilova

Gurlan tumani mahalliy byudjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidan ajratilgan mablag‘lar to‘g‘risida

MA‘LUMOT

№	Tashkilot nomi	Maqsadi	Summa
1	Gurlan tumani hokimligi	"Ayollar daftari" jamg‘armasiga	177 620 000
2	Gurlan tumani hokimligi	"Yoshlar daftari" jamg‘armasiga	177 620 000
3	Gurlan tumani hokimligi	“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga	355 240 000
4	Gurlan tumani hokimligi	O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimida Bolalarni sog‘lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko‘maklashish jamg‘armasiga	118 414 000
5	Gurlan tumani hokimligi	Tuman hokimligining qurilish va ta'mirlash ishlaridan bo'lgan qarzdorliklarini qoplash xarajatlariga	200 000 000
6	Gurlan tumani hokimligi	Tuman hokimligining kommunal to‘lovlari, internet va telefon aloqa xizmati, qo'riqlash, pochta va xizmat avtomobillari xarajatlariuchun	98 778 000
7	Gurlan tumani hokimligi	Tumanlararo fuqarolik sudining hal qiluv qaroriga asosan undiriladigan mablag‘lar uchun	202 000 000
8	Gurlan tumani hokimligi	Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari oylik maoshiga ustama to‘lash xarajatlari	20 454 000
9	Gurlan tumani hokimligi	Tuman hokimining jamoatchilik bilan ishlash bo‘yicha maslahatchisining ish haqi xarajatlari	14 033 000
	Jami	**x**	**1 364 159 000**